



AHOLINING TIBBIY MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH

Nasridinova Sevinch Nasridinovna

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi 4-kurs talabasi
<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7783734>

ARTICLE INFO

Received: 22th March 2023

Accepted: 29th March 2023

Online: 30th March 2023

KEY WORDS

Qoida, oila, tibbiy, madaniyat, psixologik, turmush.

ABSTRACT

Mazkur maqolada aholining tibbiy madaniyatini shakllantirish haqida fikr-mulohazalar bildirildi.

Sog'liqni saqlash tashkilotlari va davolash-profilaktika muassasalari oldidagi aholining tibbiy madaniyati va tibbiy savodxonligini oshirish bo'yicha birinchi galda o'z yechimini kutayotgan masalalardan biri, bu – aholi salomatligi ko'rsatgichlarida kuzatilayotgan asosiy salbiy yo'nalishlarni aniqlab olish va uni barqarorlashtirish, kelajakda esa ijobiy siljishlarga erishishni ta'minlovchi tadbirlarni shakllantirishdir.

Keyingi yillarda respublikamizda oilalarning tibbiy madaniyatini oshirishga alohida e'tibor qaratilganligi, turmush madaniyatini shakllantirishda oilaning roli o'sib borayotganligidan dalolat beradi.

Oilalarning tibbiy madaniyati deganda biz, avvalo, har bir oilada inson salomatligining oliy qadriyat sifatida qay darajada e'tirof etilganligini, barcha oila a'zolari tomonidan turmush madaniyati qoidalarini va ushbu qoidalarga oqilona rioya qilib yashay olishini tushuntirishimiz kerak. Oilaning tibbiy madaniyati darajasi faqatgina oilalarning umumiy madaniylik darajasini ta'riflamasdan, balki butun jamiyatning madaniylik darajasini, uning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbolini ham belgilaydi, millatning yetuk bo'lib shakllanishida hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Jismoniy baquvvat va teran fikrlay oladigan sog'lom avlodni tarbiyalashda oila madaniyatining rolini yuksak baholab, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi keyingi yillarda oila madaniyatini oshirish va sog'lom avlod tug'ilishi va uni tarbiyalashning ustuvor yo'nalishlari haqida qator qarorlar qabul qildi. Bu sohada amalga oshirilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlarning maqsadli dasturi ishlab chiqildi va dastur muvaffaqiyat bilan amalga oshirilmogda. Oilaning tibbiy madaniyatini oshirish o'z mohiyatiga ko'ra tarkibiga oila a'zolari tomonidan sog'lom turmush madaniyati qoidalari asosida yashashni nechog'li anglab yetganligini o'rganishni, bu sohada oilada ota-onaning namunaviy rolini baholash, oila budjetining taqsimlanishida turmush madaniyati ehtiyojlarining hisobga olinishi, oila a'zolari tomonidan shaxsiy gigiyena qoidalariga qay darajada rioya qilib yashayotganliklari, uy-joy gigiyenasi va estetikasi holati, ozoda va orasta kiyinishi, ovqatlanish tartibiga rioya qilinishi,



oilaning reproduktiv salomatlik ko'rsatkichlari holati, irsiy madaniyligi, zaruriyatiga ko'ra o'z vaqtida tibbiy yordamga murojaat qilishi, oila a'zolarining o'zaro psixologik mutanosiblikda va murosa qilib yashashi, shuningdek, yuqoridagi tibbiy madaniylik ko'rsatkichlarining oila a'zolarining umumiy madaniyligi bilan bog'liqligini baholash kabilarni qamrab oladi. Oilalarning tibbiy madaniyatini oshirishda birinchi navbatda joylardagi tibbiyot xodimlari faoliyatini baholash, mahalla va qishloq fuqarolari yig'inlari, turli xil jamoat tashkilotlari va din peshvolarining rolini, ommaviy axborot vositalarining bu sohadagi faoliyatini hisobga olish zarur. Oila madaniyati o'z-o'zidan shakllanmaydi. Bu borada oldimizda turgan strategik va taktik vazifalarni amalga oshirish-oilalarning va aholining tibbiy madaniyatini oshirish o'zining quyidagi boshlang'ich nuqtalariga ega bo'lishi lozim: eng avvalo aholining tibbiy bilimlarga bo'lgan ehtiyojini o'rganib chiqish asosida profilaktik tadbirlar dasturini ishlab chiqish, maqsadlarni shakllantirish, tegishli qarorlar qabul qilish va amaliy ish rejalarini tuzib olish; muayyan hududlarda yashovchi aholining turli qatlamlari o'rtasida epidemiologik va sotsiologik tadqiqotlar o'tkazish orqali salomatligini dinamik ravishda baholab borish va monitoring o'tkazish yo'li bilan xavfli omillarni izlab topish; olingan ma'lumotlarga tayangan holda aholining tibbiy madaniyatini va uning tibbiy savodxonligini oshirish uchun aniq maqsadga yo'naltirilgan ishlarni tashkil etish, zaruriyatga ko'ra mavjud sog'liqni saqlash tizimi tarkibini yanada takomillashtirish, yangi ish usullaridan amalda foydalanish yaxshi natijalar beradi. Aholi o'rtasida sog'lom turmush madaniyatini shakllantirish bo'yicha kundalik-joriy ishlarni tashkil etish, shuningdek, sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish sharoitida tibbiy madaniyatni oshirish markazlari vazifasini o'tash, aholi o'rtasida turmush madaniyatini shakllantirish, oilaning tibbiy madaniyatini oshirish masalalari bilan bevosita shug'ullanish va bu sohada tashkiliy-uslubiy faoliyat ko'rsatish, ayni paytda sanitariya – epidemiologiya nazorati markazlari, qishloq-vrachlik punktlari, shahar vrachlik punktlari, oilaviy vrachlar (uchastka vrachlari) bilan uzviy hamkorlikda ish olib borishda salomatlik instituti, uning filiallari, shahar va tuman salomatlik markazlarining roli beqiyosdir. Aholining tibbiy madaniy va tibbiy savodxonligini oshirish, asosan, quyidagi 3 ta yo'nalish bo'ylab olib borilishi maqsadga muvofiqdir:

Birinchi yo'nalish – aholining keng qatlamlarini ommaviy axborot vositalari orqali o'qitishni tashkil etish;

Ikkinchidan – aholining alohida qatlamlarini guruhlariga bo'lib, maxsus ishlab chiqilgan dasturlar asosida o'qitishni tashkil etish;

Uchinchidan – individual usul va vositalardan foydalanish orqali aholining tibbiy madaniyatini va ma'lumotlilikini oshirish, shuningdek, keng aholi ommasini baxtsiz hodisalar yuz berganda birlamchi tibbiy yordam ko'rsatishga o'qitishni tashkil qilish bu sohada qilinishi zarur bo'lgan muhim vazifalar qatoriga kiradi. Salomatlik, uzoq umr ko'rish, tibbiy faollik kabi tushunchalar o'z maqsad va mazmuniga ko'ra oilaning tibbiy madaniyati tushunchasi bilan hamohang bo'lib qolmasdan, balki uning mantiqiy hosilasi hamdir. Tibbiy an'analar tibbiyotning ko'p asrlik tarixi jarayonida mutlaq madaniy qadriyatlarga aylanib, tibbiy madaniylik tushunchasi bilan yaxlit bo'lib qo'shilib ketgan. Shu asnda tibbiy madaniylik deganda – insonning o'z salomatligiga munosabati, o'zini tuta bilishi, axloqiy me'yorlarga rioya qilishi kabilar tushunilishini ta'kidlab o'tish joiz. Biz bu masalaga faqat tibbiy madaniylik jihatidan qarassak odam nima uchun zardob, vaksina va shu kabi dorilar kerak



bo'lmaydigan, faqatgina o'zini oqilona tuta bilishi tufayligina oldini olish mumkin bo'lgan xastaliklar bilan tez-tez kasallanib turadi degan savolga to'g'ri javob bera olamiz. Respublikamizda yurak-qon tomirlar aterosklerozi, semirish kabi kasalliklar ko'payishi va turli xil zararli odatlarga ruju qo'yish hollarining o'sishi, odamlar o'rtasida umumiy va shu jumladan tibbiy madaniyatning qoloqligidan dalolat beradi.

Tibbiy madaniyatdagi qoloqlik, avvalo, shaxs tomonidan salomatligining o'zi uchun eng zarur va birlamchi hayotiy ehtiyoj ekanligini anglay olmasligidir. Afsuski, ko'pchilik odamlar qadriyatlar orasida birinchi o'ringa hayotning moddiy qulayliklari, mansabga intilish, muttasil ravishda ichish, maishatbozlik, mol-dunyo to'plash kabilarni qo'yishadi. Aslida esa, inson ehtiyojlari orasida birinchi o'rinda uning salomatligi turishi lozim. Odamlar bu oddiy haqiqatni tushunmaydilar deb aytish qiyin. Biroq, uning mohiyatiga yetib bormaganlar desak, xato bo'lmaydi. Ming afsuslar bo'lsinkim, ko'pchilik odamlar o'z salomatligining qadriga, uni yo'qotganlaridan so'nggina yetadilar. Oqibatda vrach va bemor oldida yangi, uncha oson bo'lmagan muammo - bemorni davolash zaruriyati ko'ndalang bo'lib qoladi. Bu tibbiy madaniyatsizlik tufayli o'z sog'ligining qadriga yetmaslikning qonuniy oqibatidir. Muayyan vaziyatda tibbiyot xodimining oldida bu murakkab psixologik muammoni shakllantirish, ularni sog'lom yashashga o'rgatish vazifasi turadi. Sog'lom yashashga o'rgatish yoki turmush madaniyatini shakllantirish oilaning madaniyatini va odamlarning tibbiy madaniyat darajasini ko'tarish demakdir. Bizda amalda tibbiy an'analardan madaniylikni oshirishda deyarli foydalanmaslik, ularni hisobga olmaslik ajablanarli bir holdir. Bunda tibbiy an'analar, so'zsiz ravishda, tibbiy madaniylik tushunchasiga kiritilishini anglab yetish o'ta muhimdir. Tibbiy an'analar deganda, avvalo, vrachning namunaviy timsoli, o'zini-o'zi anglashi, bemorga munosabati, jamiyatdagi egallagan mavqei, obro'si, odamlar o'rtasida o'zini tutishi, an'anaviy gigiyenik me'yorlarga rioya qilishi, xalq tabobati usullariga munosabati kabilarni tushunmoq kerak. Aholi o'rtasida turmush madaniyatini shakllantirishda, shuningdek, oilalarining tibbiy madaniyatini oshirishda odamlarning mehnat va ijtimoiy sohadagai faolliklari bilan bir qatorda, ularning tibbiy faolliklari ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Tibbiy faollik deganda – muayyan shaxslar, guruhlar, barcha aholi, shuningdek, sog'liqni saqlash xizmati xodimlari tomonidan davolash-profilaktik yordamni ta'minlash uchun qilinadigan faol harakat tushuniladi.

Tibbiy faollikning muhim bir xususiyati shundan iboratki, unda odamlar gigiyenik jihatdan o'z-o'zini tuta bilish, o'zining va atrofdagilarning salomatligiga ijobiy munosabatda bo'lishi uchun davolash-profilaktika muassasalariga o'z vaqtida murojaat qilishga va vrachlarning tavsiyalari zarurligini anglagan holda ularni bajarish uchun faol harakat qilishga intilib yashaydi. Past darajadagi tibbiy faollik, ayniqsa, bolalar salomatligiga, ularning salomatlik ko'rsatkichlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Aholining tibbiy faolligini o'stirish orqali turmush madaniyatini shakllantirish uchun, bir tomondan, odamlarda o'zining salomatligiga nisbatan mas'uliyatni ko'tarish bo'lsa, ikkinchi tomondan, birlamchi bo'g'in muassasalarida bemorlarni nazorat qilish usulining samaradorligini oshirish uchun tashkiliy ishlarni

Ushbu mavzuni yakunlab shuni aytib o'tish o'rinliki, tibbiy madaniylikni, jumladan oilaning tibbiy madaniyatini oshirish – turmush madaniyatini shakllantirish jarayonida o'zining munosib o'rnini egallashi lozim. Shundagina biz – odamlar nima uchun zararli omillarning o'z organizmiga salbiy ta'sirini tushunib, ulardan qutulishga erisha olmaydilar



degan savolga javob berib, buning asosiy sababi - ularning umumiy va tibbiy madaniyatning yetishmasligi ekanligiga ishonch hosil qilamiz.

References:

1. Qosimov E. Y., Shifokorning nutq madaniyati va bemor bilan muloqot san'ati, Toshkent, 2002.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 7 декабрдаги «Ўзбекистон Республикаси соғлиқди сақлаш тизимини тубдан такомиллаштириш буйича комплекс чора-тадбирлар тугрисида»ги ПФ-5590-сон Фармони;
3. Маматкулов Б.М., Нодиров Т. Соғлом турмуш тарзи ва оила саломатлиги. Уқув кулланма. Карши, 2018.